



Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra viloyatda 3 194 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 705 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 517 tasi (16,2 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 303 tasi (9,5 %) to'qimachilik ishlab chiqarishga, 297 tasi (9,3 %) kiyim ishlab chiqarishga va 255 tasi (8,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- noyabr holatiga ko'ra





II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan **39 413,5** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **107,1** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	39 413,5	107,1
<i>tumanlar:</i>		
Olot tumani	817,2	104,4
Buxoro tumani	1 052,1	105,6
Vobkent tumani	1 109,0	102,3
G'ijduvon tumani	2 661,2	108,2
Kogon tumani	1 870,0	102,6
Qorako'l tumani	966,6	106,0
Qorovulbozor tumani	15 933,6	112,0
Peshku tumani	997,6	118,2
Romitan tumani	1 558,9	106,8
Jondor tumani	1 200,2	103,0
Shofirkon tumani	885,7	105,1
Buxoro sh.	3 904,8	102,4
Kogon sh.	1 114,8	107,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (**778 271,8** ming so'm), Kogon tumanida (**21 514,4** ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**18 875,8** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **105,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, Peshku tumanida (**116,2** %), Qorovulbozor tumanida (**109,9** %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-oktabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **36 090,4** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**91,6** %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **238,5** mlrd so'm (0,6%), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **2 749,8** mlrd so'm (**7,0** %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **334,8** mlrd so'm (**0,8** %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-oktabr oylarida





III. Yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1 747,8 ming l 100% li aroq (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 46,2 % ga kamaygan), 853,4 ming tonna avtomobil benzini (0,6 % ga ko'paygan), 26 374,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,7 % ga ko'paygan) hamda 10 438,1 ming kv.m ip gazlamalari (32,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr*	2024-yil yanvar-oktabr*	2025-yil yanvar-oktabr
Aroq-ming l 100% li spirt	3 798,8	3 247,4	1 747,8
Avtomobil benzini, ming t	843,1	848,0	853,4
Xom yoki tozalanmagan oltinugurt, t	766,0	965,6	1 417,0
Dizel yoqilg'isi, ming t	155,3	215,3	345,6
Mazut, ming t	46,8	66,6	53,8
O'simlik yog'i (tozalangan), t	6 937,6	8 105,1	7 418,0
Paxta tolasi, t	59 850,0	47 366,0	53 406,0
Paxta chigiti, t	95 753,0	78 655,0	80 194,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	15 619,8	25 190,8	26 374,0
Ip gazlamalari, ming kv.m	8 001,2	15 338,9	10 438,1

*2023-2024-yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari



Jami sanoat tarkibidagi koks va neft mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,0 % (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,3 % (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-oktabr oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,2% (3,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,5 % (51,0 %), quyi texnologiyali 46,2 % (45,9 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo'yicha)

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 85,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 77,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr*	2024-yil yanvar-oktabr *	2025-yil yanvar-oktabr
---------------------	-------------------------	--------------------------	------------------------



Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 672,5	1 434,2	1 223,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	509,3	497,0	382,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar **15,2** % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **4,9** % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **0,9** % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr *	2024-yil yanvar-oktabr *	2025-yil yanvar-oktabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	15 943,4	26 910,2	28 238,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	346,2	341,3	344,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar mln so'm	93 214,1	153 339,1	176 616,7

**2023-2024-yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 17 302,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 46,6 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʻi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni mahsulot turlari boʻyicha shakllantirish Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (OʻzDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat boʻyicha statistika maʼlumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) maʼlumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi maʼlumotlari; e) uy xoʻjaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi boʻyicha taʼrif



Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyat Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Dehqonov
65 223-80-82 (8010)

